

**MUSIQIY TA’LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY INTERFAOL  
METODLARDAN FOYDALANISH DARAJASINI  
ANIQLASH MEZONLARI**

*To’ymurodova Dilshoda Dilmurodovna*

*Buxoro davlat universiteti huzuridagi Pedagogika Instituti*

*San’atshunoslik kafedrası II-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada musiqa o’qitish jarayonida musiqiy pedagogik maxorat tarkibini o’z ichiga oladigan badiiy musiqa, musiqiy san’at mazmunida shaxsni zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish darajasini aniqlash, o’quvchilarni ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda o’yi xolatini qo’llash, o’quvchilarni mustaqil tayorlashda malaka ko’nikmalarini shakllantirish, pedagogik ijodkorlik, o’quv tarbiyaviy vazifalarni yechishda va musiqiy ta’limni o’rganishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, musiqa darslarida musiqiy muloqot jarayonini tashkil etish, musiqa fanining boshqa fanlar bilan bog’liqligi haqida suxbat, musiqiy ta’lim samaradorligini oshirish haqida uslibiy tavsiyalar berilgan.

**Tayanch so’zlar:** Interfaol usullar, Ta’lim , Musiqiy pedagogika, Pedagogik texnologiya

**Abstract.** In this article, in the process of music education, artistic music, which includes the composition of musical pedagogical skills, to determine the level of use of modern interactive methods in the content of musical art, to use the state of mind in the development of students' creative abilities, to make students independent formation of competence skills in training, pedagogical creativity, use of new pedagogical technologies in solving educational tasks and studying music education, organization of musical communication process in music lessons, conversation about the connection of music science with other disciplines, musical education Methodological recommendations on increasing the efficiency of education are given.

**Key words:** Interactive methods, Education, Musical pedagogy, Pedagogical technology

O’z musiqiy faoliyatini dastur asosida amalga oshirishga tayyorlanayotgan bo’lajak musiqa o’qituvchilari musiqa cholg’u asboblarni yaxshi chalishi, ifodali qo’shiq aytishni bilishi ,maktab musiqa repertuarini o’rganishi,o’zbek musiqa tarixi,jahon musiqasi tarixi kabi qator musiqiy fanlar bo’yicha puxta bilim va malakalarga ega bo’lishi nazarda tutiladi.

Musiqa savodiga ega bo’lmagan ham yoqimli ashula ayta olishi, hatto musiqa asbobida chalishni ham eplaydilar. Ammo musiqa o’qituvchisining kasbiy faoliyati ko’pincha notanish,yangi musiqa asarlarini o’zlashtirish va o’rgatishni talab etadi. Shu

nuqtayi nazardan o‘qituvchi musiqa yozuvi va uning nazariy qonuniyatlarini puxta bilishi shart. Shu bilan birga ta’lim jarayonlariga yangicha yondoshish, pedagogik texnologiyalardan unumli hamda o‘rinli foydalanish zarurdir. Zamonaviy pedagogik texnologiyani amalda qo‘llash jiddiy jarayon bo‘lib, o‘qituvchidan katta mahorat va malaka talab etadi. Xususan, o‘quvchining tarbiyalanganlik darajasi va ruhiy holatini bilish, o‘quvchilar jamoasi yosh xususiyatlariga mos tarzda rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida diagnostika qilish lozim.

Pedagogning kasb qobiliyati, faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari shu jarayonda to‘la namoyon bo‘ladi. O‘quvchining mukammal ta’lim va tarbiya olishi uchun nimalarga e’tibor berish kerak, o‘quvchi shaxsida komil insonning tarkib topishida qanday qonuniyat va tamoyillarga amal qilinadi, qaysi metod va texnologiyalar samara beradi, ta’lim mazmuni nimalarni o‘z ichiga olishi kerak, qanday vositalardan foydalanish mumkin kabi xilma – xil savollarga pedagogik texnologiya asosidagi yondoshuv aniq javob bera oladi. Pedagogik texnologiya turlicha ta’riflanayotgan bo‘lsa-da, uning mohiyatini o‘quv jarayonini har tomonlama mukammal loyihalashtirish, aniq maqsadlar qo‘yish va ularga garovli erishish, rejalashtirilayotgan natijani amalga oshirish imkonini beruvchi uzviy bog‘langan komponentlar majmui deb tushunish mumkin. Quyidagi uchta psixologik tamoyillar pedagogik texnologiyani amalga oshirishda qo‘llanishi zarur:

1. O‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlari tahlili.

2. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida tahsil va ta’lim munosabatlari tizimini shakllantirishga erishish.

3. Ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan uslubning ta’lim rivojlanishini ta’minlashi.

Ushbu psixologik tamoyillar o‘quvchilarning bilimlarni egallash klassifikatsiyasini ko‘rsatadi. Ta’lim berish jarayonida o‘qituvchi nimaga diqqat qilishi lozimligini uqtiradi. Zero, ba’zi o‘quvchilar bilimlarni ma’ruza tinglash orqali o‘zlashtirish qobiliyatiga ega toifaga mansub. Ba’zilari esa kitobni mustaqil o‘qish orqali fanni egallash xususiyatiga ega. Uchinchi toifa o‘quvchi o‘qituvchining rag‘batlantirishi “yashirin” shaxsiy qiziqishlarini uyg‘otishi tufayli yaxshi tahsil olib, bilimlar egallaydi. Psixologik tamoyillarga amal qilish o‘quvchida hozirgi zamon talablariga javob beruvchi evrestik tafakkur qilishga, mustaqil fikrlashga, uning shaxsida ijodiylikni rivojlanishiga asos bo‘ladi.

Shaxsni har jihatdan barkamol tarbiyalashdek maqsadga erishishning yetakchi omillari ham aslida xuddi shulardir. Darslarda yirik shakldagi asarlarni o‘rganish, idrok etishda o‘smirlar tomonidan musiqa asarining faqat “matni” emas, balki musiqani yaratgan ijodkorni ko‘ra olishni, musiqiy asarning ichki intonatsion xususiyatini his eta olishga turtki bo‘luvchi metodlar qo‘llanishi zamon talabi bo‘lib qolmoqda. “Musiqqa haqida fikr yuritish metodi” – o‘quvchilarning ma’naviy qadriyatlarni shaxsan, yakka holda o‘zlashtirishlariga qaratilgan. Bu metod musiqa yordamida hal etilishi mumkin

bo‘lgan muammo tanlash va uning yechimi o‘quvchilar tomonidan hal etilishini nazarda tutadi. Muammo sifatida quyidagi mavzular keltirilishi mumkin:

“Mening hayotimda yengil va jiddiy musiqaning o‘rni”; “Zamonaviy yoshlar qanday musiqani yoqtiradilar va nima uchun?”; “Insoning musiqa madaniyati qanday namoyon bo‘ladi?”; “O‘zbek yoshlariga Yevropa klassik musiqasi kerakmi?”; “Estrada yoshlar hayotida ijobiy ahamiyatga egami?” va h.k. “Musiqiy umumlashtiruv metodi” – o‘quvchilar tomonidan musiqa haqida chorak mavzulari asosida “tayanch bilimlar” o‘zlashtirilishiga qaratilgan. Masalan, 5-sinf 3-choragida balet janri bo‘yicha – “musiqa va harakat uyg‘unligi”, “badiiy plastik harakat”, “sahna asari”, “musiqiy dramaturgiya”, “O‘zbekiston kompozitorlarining balet asarlari” lar tayanch tushunchalar majmuasini hosil qilish mumkin. “Badiiy kontekst yaratish metodi” o‘quvchilar musiqa madaniyatini rivojlantirishda ma’lum bir davr musiqasi chegaralaridan “chiqish” ga, ya’ni boshqa san’atlar, tarix, tabiat, hayotiy holat va obrazlarga murojaat qilishga asoslangan, darsda boy badiiy muhit yaratishga qaratilgan.

Masalan, M.Bafoyevning 4-simfoniyasi “Movaraunnaxr” ni o‘rganishda Navoiy davrining madaniyati, siyosiy muhiti, tarixiy voqealariga tayanish orqali amalga oshiriladi. “Hayotiy assotsiatsiyalar metodi” – yuqoridagi metodga yaqin turadi. Bu metod o‘quvchilarda musiqiy asar qahramonining holatiga yaqin bo‘lgan alohida emotsional tuyg‘ular uyg‘otishga qaratilgan. Bunday holat suhbat yordamida, noan’anaviy dars shaklida olib boriladi. Masalan, 5-sinfda U.Musayevning “To‘maris” baletini o‘rganishda, S.Yudakovning “Maysaraning ishi” operasidagi qahramonlarining musiqiy qiyofasini o‘rganishda qo‘llaniladi.

Ma’lumotlar, o‘qituvchilar bilan o‘tkazilgan suhbatlar tahlili ko‘rsatishicha ko‘pgina maktablar musiqa darslarida pedagogik texnologiyalarning qo‘llanishi epizodik tarzda kechmoqda. Bunga asosiy sabab zamonaviy dastur va ishlanmalarning, talab darajasidagi o‘quv vositalarining yetarli emasligi, musiqa darslarining haftada bir soatni tashkil qilishi, ba’zi musiqa o‘qituvchilarining pedagogik texnologiyalar nazariyasi, amaliyoti haqidagi bilimlarining yetarli emasligida va buning natijasida musiqachi- o‘qituvchilarning pedagogik texnologiyalarni joriy qilishdagi qiyinchiliklari hozirgi davrda musiqa ta’limida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash asosida o‘qitish samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillar bo‘lib qolmoqda. Bu masala o‘rta sinflarda, ya’ni o‘quvchilarning musiqa san’atini ongli idrok etish va bilishlari, musiqiy asarni badiiy ohang va mantiqiy jihatdan xotirada turg‘un saqlay olish xususiyatlari kengaygan davrda, ayniqsa, dolzarb hisobdanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 8-fevral soni va Internet resursi: [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. O‘zbekiston Respublikasi Konsititutsiyasi – T.:O‘zbekiston, 2014.-46
3. J.G‘.Yo‘ldoshev, S.A.Usmonov – Pedagogik texnologiya asoslari. T. O‘qituvchi 2004
4. K.Tolipov M.Usmonboyeva.- Pedagogik texnologiyalarni tadbiqiy asoslari T. Fan, 2006
5. R.J.Ishmuxammedov.- Innovatsion texnologiyalar yordamida ta‘lim samaradorligini oshirish yo‘llari. T.Nizomiy nomidagi TDPU,2004 yil.